

O'N ICHIDA QO'SHISH VA AYIRISH

*Buxoro davlat pedagogika instituti
Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(boshlang'ich ta'lim) yo'nalishi I kurs magistranti
Mexmonova Sitara Imomovna*

Sinf:1

Dars:Matematika

Mavzu: O'n ichida qo'shish va ayirish.

Darsning maqsadi:

ta'limiy :10 soni tarkibiy qismlari, qo'shiluvchilarga ajratish, qo'shish va ayirish amallarini hadlari nomlarini takrorlash, mustahkamlash.

Tarbiyaviy: jamoa bo'lib ahil ishlashga o'rgatish.

rivojlantiruvchi: to'g'ri va noto'g'ri mulohazalarni farqlashga o'rgatish.

Tayanch kompetensiyalar:

Muloqot qilish-M4 kompetensiyasi shallanishini ta'minlaydi. 1.Matematik fikrni og'zaki va yozma yetkazish, o'zgaralar bilan o'zaro muloqot qilish uchun matematika tilidan, belgi va timsollardan o'rnida foydalanish; 2.Boshqalarning matematikaga oid fikrlarini tushunish, tahlil qilish, baholash va ularga munosabat bildirish

Modellashtirish (M2) 1. Muammoli vaziyatlar mohiyatini o'qib tushunish, tahlil qilish va unda keltirilgan muammoni aniqlash)

Modellashtirish (M2): o'quv va hayotiy muammolarni matematika tilida ifodalash, ularning matematik modelini qurish kompetensiyasi shakllanishini ta'minlaydi.)

Matematik mazmundagi kompetensiya:

Sonlar va amallar (SA). O'quvchilar 10 sonini xona qo'shiluvchilariga ajrata olishlari (1+9,2+8,3+7,4+6,5+5),10 ichida qo'shish va ayirish amallarini tezlikda bajara olishlari kerak.

Dars turi: an'anaviy

Dars tipi: mustahkamlovchi

Dars metodi: amaliy,ko'rgazmali,aqliy hujum

Darsjihozi: 1- sinf " Matematika " darsligi , 1- sinf " Matematika" daftari , ko'rsatma materiallar va ko'rgazmali qurollar , notebook, multimedia .

Darsning shiori:

**Matematika fanlar ichra shoh,
Uning sirlaridan bo'lingiz ogoh.**

Darsning maqsadi:

T /R	Bo'limlar	Vahti
1	Tashkiliyqism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		daqiqqa

**Barkamol inson bo'lib ,
Vatanga xizmat qilish.**

Tashkiliy qism(3daqiqqa):

Salomlashish,kirish suhbatlari,davomat olish.

O'qituvchi:

Qani ayting bolalar,
Kim navbatchi bo'ladi.
Ushbu kunning hisobin
Menga aytib beradi.

Navbatchi:

Menman bugun navbatchi
Gullarga suv quyuvchi.
Doskani ham artuvchi
Sanani ham aytuvchi.

O'qituvchi:


So'zlang hozir qaysi dars?
Tayyormisiz saboqqa?
A'lo baho olish uchun
Aniq, to'g'ri javobga.

O'quvchi:

Sabog'ingiz puxta bilib olganmiz
Besh ball uchun tayyor bo'lib kelganmiz.

O'tgan mavzuni mustahkamlash.

O'tgan darsda o'rganilgan savol va topishmoqlar ovozni o'zgartirib yozib oluvchi pragrammalar yordamida audio topshiriq sifatida tayyorlab qo'yiladi va shundan foydalanib o'quvchilar olgan bilimlari takrorlanib, mustahkamlanadi.



Aziz bolajonlar bugungi darsimizda Robot Robbi mehmon bo'lib kelibdilar (rasmni doskada yoki televizorda ko'rsatib qo'yiladi).

-Assalom, Robot Robbi, Matematika darsimizga xush kelibsan.

-Assalom, aziz ustoz va qardli bolajonlar. Men bugun matematika darsingizda sizlarning shijoatingiz va olgan bilimlaringizni kuzatgani va baholagani keldim. Olgan tasurotlarimni ertaga o'z maktabimda, do'stlarim va ustozlarim bilan bo'lishmoqchiman. Barchangiz darsga tayyormisiz?

-Ha!

-Ajoyib, hozir men sizga bir nechta savol va topishmoqlar tayyorlab kelganman shularning javobini qani kim odob bilan menga ayta oladi?

Qo'shiluvchi, qo'shiluvchi va yig'indi qaysi amal hadlari?

Sonli ifoda nima?

Sonli ifodada ayirish amalini turibdi, shunda chiqqan qiymatni nima deb ataymiz?

1 va 4 sonlari yig'indisi nechaga teng?

8 va 4 sonlari ayirmasi nimaga teng?


Qo'shish amali sonni bir necha qiymatga kamaytiradi, to'g'rimi?

Balli bolajonlar siz juda bilimdon va topqir ekansizlar!




(Muloqot qilish-M4 kompetensiyasi shallanishini ta'minlaydi. 1. Matematik fikrni og'zaki va yozma yetkazish, o'zgaralar bilan o'zaro muloqot qilish uchun matematika tilidan, belgi va timsollardan o'rnida foydalanish; 2. Boshqalarning matematikaga oid fikrlarini tushunish, tahlil qilish, baholash va ularga munosabat bildirish.)

Yangi mavzu bayoni.



Topshiriq slaydda namoyish etiladi.



Mana ikkita filcha bor edi, yana 4ta filchalar ularga kelib qo'shildi. Jami nechta filcha bo'lishdi? Doira ichiga qaysi belgini qo'yamiz?

Ifoda tuzamiz: $2+4=6$

Keling, qo'shishni to'g'ri bajarganligimizni ayirish bilan tekshiramiz.

Sonli ifoda tuzamiz: $6-4=2$ yoki $6-2=4$


Ayirish amali esa qo'shish bilan tekshiriladi!

Keyingi topshiriqni o'quvchilar o'ziz bajarishga harakat qiling.



Avval og'zaki so'ng yozma bajaramiz.

-Bizning robot ham vazifani bajaribdi, o'zimizning bajargan ishimiz bilan taqqoslab, tekshirib olamiz.



-O'quvchilar agarda siz ham xuddi shunday bajargan bo'lsangiz demak, bugungi mavzuni juda yaxshi tushunib olibsiz, ofarin!

(– Modellashtirish (M2): o'quv va hayotiy muammolarni matematika tilida ifodalash, ularning matematik modelini qurish kompetensiyasi shakllanishini ta'minlaydi.)

Yangi mavzuni mustahkamlash.

Berilgan tenglikka mos rasm qaysi ekanligini ayting!.

3 Qaysi rasm $8 - 2 = 6$ tenglikka mos?



To'g'ri javob:



-Barakalla, o'quvchilar bilimingizni oxirgi marta sinab ko'rmoqchiman. Keyingi topshiriqni hamma o'zi mustaqil bajaradi.

Mening ikki qo'limdagi sonlar va qornimdagi amal yordamida tenglik tuzing va javobini oyog'im ostidagi to'rtburchak ichiga joylashtiring. Shu sonli ifodalarni



daftaringizga ko'chirib yozib oling!

(Modellashtirish (M2) 1. Muammoli vaziyatlar mohiyatini o'qib tushunish, tahlil qilish va unda keltirilgan muammoni aniqlash)

O'zimizni tekshiramiz:

$5+5=10$	$10-5=5$
$4+6=10$	$10-4=6$
$6+4=10$	$10-6=4$
$8+2=10$	$10-2=8$
$2+8=10$	$10-8=2$
$1+9=10$	$10-9=1$
$9+1=10$	$10-1=9$
$7+3=10$	$10-3=7$
$3+7=10$	$10-7=3$

O`quvchilarni rag`batlantirish. Darsni yakunlash.



Uyga vazifa: Sonlarning yozilishini mashq qilish.